

Vobkent tuman Axborot- kutubxona markazi mutaxassislari tomonidan tuman Mudofaa ishlari bo`limiga tashkil etilgan ko`chma kutubxonada 2026- yil 11- fevral kuni Boburiylar davlatining asoschisi Z.M. Bobur tavalludining 543 yilligiga bag`ishlab “**Bobur ijodida Vatan sog`inchi**” nomli bibliografik sharh o`tkazildi.



Ishtirok etdilar: Vobkent tuman axborot-kutubxona markazi xodimlari, Tuman Mudofaa ishlari bo`limi xodimlari.

Jami: 18 nafar.

Tashkilotchilar: Vobkent tumani axborot-kutubxona markazi.

Tadbirni o`tkazishdan maqsad: Ijobiy faoliyati va kuchli siyosati bilan dunyo tarixida o`chmas nom qoldirgan buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludini nishonlash.

Vobkent tuman Axborot- kutubxona markazi xizmat rahbari D.Nabiyeva Mudofaa bo`limi xodimlariga Boburning bir qancha asarlarini sharhlab berdi va Bobur haqida ma`lumot berdi. Turkiy adabiyotning eng mashhur vakillaridan biri, o`zining ijobiy faoliyati va kuchli siyosati bilan dunyo tarixida o`chmas nom qoldirgan buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur Amir Temurning munosib vorislaridan bo`ldi. uning avlodlari esa ko`p yillar davomida dunyo siyosatiga katta ta`sir ko`rsata oldilar. Shu tariqa Bobur ulkan sulola asoschisi sifatida tarixda qoldi- deya so`zini davom ettirdi.



Bobur o`zbek adabiyotida lirik janrlar rivojiga katta hissa qo`shgan xassos shoirdir. Uning lirikasini g`azal, ruboiy, qit`a, tuyuq, masnaviy va muammolar tashkil etadi. Bobur she`riyatida ona yurtga muhabbat, vatanni qo`msash, motivlari katta o`rin egallaydi. U ushbu kechinmalarini, ayniqsa ruboiylarida keng ko`lamda ifoda etadi- deya so`zini tugatdi.

Mamasoliyeva Gulshod va Ibrohimov Sardorlar Bobur asarlarining “Boburnoma” va “Humoyun va Akbar”lariga qiziqish bildirdilar va kutubxona bilan hamkorlikni kuchaytirish uchun obuna bo`ldilar.

Mudofaa bo`limi kotibi Ibrohimov Sardor:

-Shoir buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ananalarini davom ettirib vatanga muhabbat, insonparvarlik, ma`rifatparvarlik, yorga muhabbat g`oyalari bilan sug`orilgan ajoyib asarlar bitdi.

U axloq – odob mavzusiga e`tiborni qaratdi. Yaxshilikni ulug`ladi, xalq manfaatlarini o`yladi. Inson qadr – qimmatini yuqori tutdi. Odamlarni kamtarin, ko`rkam fazilatlar egasi bo`lishga da`vat etdi- deb barchani Bobur asarlariga qiziqtirib qo`ydi.

Bibliografik sharhdan ko`zlangan maqsad muvofiqiyatli bo`ldi..

AKM xizmat rahbari:

D.Nabiyeva

Foydalanilgan manbalar ro'yxati.

1. **Bobur. "Devon" (G'azallar, ruboiylar)**
— Lirik she'rlarida musofirlik, yolg'izlik va Vatan sog'inchi yetakchi mavzu bo'lib, shoir qalbidagi iztiroblar nafis badiiy vositalar bilan ifodalangan.
2. **N. Karimov. "Zahiriddin Muhammad Bobur"**
— Asarda Bobur shaxsiyati, ijodi va uning adabiy merosidagi vatanparvarlik g'oyalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.
3. **A. Hayitmetov. "Bobur ijodiy merosi"**
— Tadqiqotda Bobur asarlarining badiiy xususiyatlari, xususan, Vatan mavzusining shakllanishi keng yoritilgan.
4. **O'zbek adabiyoti tarixi (5-jild)**
— Bobur ijodining o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni, uning lirikasidagi Vatan tuyg'usi haqida muhim ma'lumotlar berilgan.

5. Bobur, Z.M. Boburnoma / Z.M. Bobur. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2007. — 432 b.

Sharh: Boburnoma — Z.M. Bobur tomonidan yozilgan avtobiografik tarixiy asar bo'lib, muallifning hayoti, davlat faoliyati va Hindistonga yurishlari haqida ma'lumot beradi. Asarda Bobur bolaligi, oila a'zolari bilan munosabatlari, siyosiy faoliyati, janglari va tabiatni tasvirlash uslubi yoritilgan. Asar tarixiy, adabiy va madaniy jihatdan katta ahamiyatga ega. Samimiy va sodda tili o'quvchini 15–16-asr davri va muallif hayotiga yaqinlashtiradi. Asar tarix, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida asosiy manba sifatida ishlatiladi.

6. Bobur, Z.M. Babur Tuzuklari / Z.M. Bobur. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1960. — 280 b.

Sharh: Babur Tuzuklari Boburning shaxsiy yozuvlari va kundaliklari asosida tayyorlangan asar bo'lib, uning siyosiy va madaniy faoliyati, oila hayoti va shaxsiy tajribalarini yoritadi. Asar tarixiy ma'lumot bilan birga muallifning shaxsiy dunyoqarashini ham aks ettiradi va o'quvchiga Bobur hayoti bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

7. Bobur, Z.M. Bobur She'rlari / Z.M. Bobur. — Toshkent: Sharq nashriyoti, 1985. — 120 b.

Sharh: Bobur She'rlari asarida Bobur she'riyati va tabiat tasvirlari jamlangan. Asar adabiy va estetik qiymatga ega bo'lib, muallifning tabiatga bo'lgan muhabbati, ichki his-tuyg'ulari va badiiy didi orqali o'quvchini o'z dunyosiga tortadi.

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/manaviyat/ajdodlarga-ehtirom/zahiriddin-muhammad-bobur>

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Bobur>

<https://tuit.uz/post/zahiriddin-muhammad-bobur-adolatli-shoh-va-buyuk-shoir>

https://www.google.com/search?q=bobur+haqida+malumot&oq=Bobur+haqida&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUqDAgAEAAyQxiABBiKBTIMCAAQABhDGIAEGIoFMgYIARBFgDkyBwgCEAAyGAQyBwgDEAAyGAQyBwgEEAAyGAQyBwgFEAAyGAQyBwgGEAAyGAQyBwgHEAAyGAQyBwgIEAAyGAQyBwgJEAAYgATSAQg1NDEXajBqN6gCCLACAFEFiuokzShPz2g&sourceid=chrome&ie=UTF-8#fpstate=ive&vld=cid:05be1b4e,vid:Shy-hiYDL3w,st:0